

Madina BOBOYEVA,
 Oriental Universiteti o'qituvchisi
 Gmail: boboyevamadina1993@gmail.com
 Tel.: +998909544115

O'zMU dotsenti, f.f.n. I.A.Jo'rayeva taqrizi asosida

THE COURSE OF THE DERIVATIONAL PROCESS IN THE SYSTEM OF WORD COMBINATIONS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article discusses the process of derivation and its impact on word combinations. So, derivatology is a science that studies derivation. Until recently, the term derivation in linguistics was understood only as the formation of words (derivation - word formation). However, derivation is not only the science of word formation, it is used in a wider sense. Derivation – words, sentences, grammatical forms of words, CWs, phraseological units, syllables, suffixes; covers texts, that is, the formation process of all language units from phoneme to text. Consequently, derivational science is the science of formation processes of language units. Word formation is one of the separate branches of derivation.

Key words: word combinations, derivation, derivatology, derivational operator, derivational models, transposition.

ХОД СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СИСТЕМЕ СЛОВСОЧЕТАНИЙ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация

В данной статье рассматривается процесс деривации и его влияние на словосочетания. Итак, дериватология – это наука, изучающая деривацию. До недавнего времени под термином деривация в лингвистике понимали только образование слов (деривация – словообразование). Однако деривация - это не только наука о словообразовании, она употребляется и в более широком смысле. Деривация – слова, предложения, грамматические формы слов, СС, фразеологизмы, слоги, суффиксы; охватывает тексты, то есть процесс образования всех языковых единиц от фонемы до текста. Следовательно, словообразовательная наука – это наука о процессах образования языковых единиц. Словообразование является одной из отдельных ветвей словообразования.

Ключевые слова: словосочетания, деривация, дериватология, деривационный оператор, деривационные модели, транспонирование.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z BIRIKMALARI TIZIMIDA DERIVATSION JARAYONNING KECHISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada derivatsion jarayon haqida va uning so'z birikmalariga ta'siri haqida yoritilgan bo'lib, derivatologiya so'zining etimologik kelib chiqishi lotin tilidagi *derivo* so'ziga borib taqaladi, "rad etaman" ma'nosini anglatadi. Demak, derivatologiya – derivatsiyani o'rganuvchi fandır. Tilshunoslikda derivatsiya atamasi yaqin vaqtgacha faqat so'zlarning shakllanishi (derivatsiya – so'z shakllanishi) sifatida tushunilgan. Biroq, derivatologiya faqatgina so'z yasalishi haqidagi fan emas, u kengroq ma'noda qo'llaniladi. Derivatsiya – so'z, gap, so'zning grammatik shakllari, SBlari, frazeologik birliklar, bo'g'inlar, qo'shimchalarni; matnlarni, ya'ni, fonemadan matngacha bo'lgan barcha til birliklarining shakllanish jarayonini qamrab oladi. Binobarin, derivatologiya til birliklarining shakllanish jarayonlari haqidagi fandır. So'z yasalishi esa derivatologiyaning alohida bo'limlaridan biridir.

Kalit so'zlar: so'z birikmalari, derivatsiya, derivatologiya, derivatsion operator, derivatsiya modellari, transpozitsiya.

Kirish. Zamonaviy derivatologiyaga xos ba'zi bir g'oyalarni qadimgi davrga oid manbalarda uchratish mumkin. Masalan, qadimgi hind tilshunosi Panini o'z davrida sanskrit tilidagi so'zlarning o'zaklari qanday hosil bo'lishi, so'zlarning shakllanishida tovushlarning almashinuvi qanday yuz berishi haqida ma'lumotlar berilgan grammatika yaratishga muvaffaq bo'lgan. Qadimgi yunon filologiyasida "*derivatsion*" lisoniy terminologiya shakllangani tasodifiy hol emas. Derivatologiyaning o'rganish predmeti derivatsiya hisoblanadi. Ayrim tadqiqot ishlarida derivatsiya deganda tilning har qanday birliklari orasidagi hosila munosabatlari tushuniladi, boshqalarida esa hosila birlikni hosil qilish jarayonining o'zi tushuniladi: "derivatsiya - hosila birlikning hosil bo'lishidir"[5].

Mavzuga oid dabiyyotlar tahlili. O'zbek tilshunosligida ham derivatologiya muammolari o'zining qadimiy tarixiga ega. Tilshunoslikda leksik derivatsiyaga oid dastlabki tadqiqotlar xususida gap borganda, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida o'z aksini topgan ilmiy mulohazalarni esga olish lozim bo'ladi. Ushbu asarda turkiy tillarda so'z yasalishiga doir dastlabki ilmiy tavsiflar kuzatiladi [4]. Mazkur manbada turkiy tillarning so'z yasalish hodisasida markaziy o'ringa ega bo'lgan affiksatsiya usuliga doir anchagina mukammal fikrlar uchrashini A.Nurmonov ta'kidlab o'tgan [6]. So'z yasalishiga doir shu singari tarixiy ilmiy mulohazalar Alisher Navoiyning "Muhokamat-ul lug'atayn", Mirzo Mehdixonning "Maboni-ul lug'at" kabi qator asarlarda ham o'z ifodasini topgan. Bu asarlarida ot, fe'l va boshqa turkumlarga oid so'z yasovchi affikslar hamda ushbu affikslarning qattiq va yumshoq variantlari, yasama so'zlarning sodda va qo'shma turlariga doir ma'lumotlar o'z ifodasini topganligi manbalarda alohida e'tirof etiladi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Derivatologiyaning muhim vazifalaridan biri derivatsion jarayonlarning ichki sabablarini o'rganishdir. Operator sintaktik derivatsiyani va umuman derivatsiya jarayonini vujudga keltiruvchi asosiy elementlardan biri hisoblanadi. Operatorsiz biror bir derivatsiya amalga oshmaydi. Operator har qanday derivatsion jarayonga ham (makromatlardan tashqari) tashqaridan olib kiritiladi va natijada, u sintaktik derivatsiyaning hokim elementi, uning egasi bo'lib qoladi. Operator, xuddi shunday, yangi statik birlikning shakllanishiga hissa qo'shadi va uni belgilaydi, ya'ni uni boshqalardan ajralib turadigan hosila ekanligining ko'rsatkichidir. Masalan, *yozuvchi* va *asar* so'zlarini olib qarash, ular ayni paytda mustaqil holatda biri ikkinchisiga bo'ysunmaydigan vaziyatda berilmoqda. Lekin ularni *yozuvchining asari* tarzidagi SB holatiga keltirsak, sintaktik derivatsiya shakllanadi. Uni derivat – kelishik qo'shimchasi va operator affiks

shakllantiryapti. Demak affiksalar derivatsiya operatori sanaladi va uning hokim elementi bo'lib qoladi. Operator vazifasi nafaqat so'z birikmalari, balki gapning sintaktik shakllanishi jarayonida ham ana shunday belgilanadi.

Tahlillar va natijalar. Operatorlar rolini so'zlar, bog'lovchilar, predloglar, grammatik shakllar, shuningdek, kontekstlar o'ynashi mumkin. Sintaktik derivatsiya nazariyasining tahlilida qo'llanadigan ikkinchi atama "operand" sanaladi. Operand tushunchasi sintaktik derivatsiyaning shakllanishiga asos bo'lgan obyektning o'zida taqozo etadi. Masalan, *yozuvchining asari* birikmasida ikkita operand ishtirok etayotganligini ko'ramiz (*yozuvchi va asar*). Demak, operand – bu sintaktik shakllanishning yangi bosqichi uchun zaruriy xom ashyodir. "Derivat" (hosila) atamasi sintaktik derivatsiyaning oxirgi mahsulini, natijasini ifodalaydi. Masalan: *asarni o'qimoq* SB yaxlitligicha derivat, ya'ni hosila sanaladi. Ayni paytda SBda *asar, o'qimoq* so'zlari derivatsiya operandlarini taqozo etmoqda. Derivatsiya operatori esa –ni kelishik affiksi orqali ifodalanmoqda. Yangi birliklarni yaratish jarayoni sifatida derivatsiya faqat so'zlargagina xos hodisa emas, tadqiqotchilarning derivatsiyaning g'oyat tor ma'noda izohlashlari va uni faqat so'z yasash tizimiga xos hodisa, deb qarash an'anasidan voz kecha olmayotganliklari ba'zan sezilib turadi [2]. Derivatsiya jarayonining ko'lamini bu taxlitda cheklash tilning yaratuvchanlik qobiliyat va imkoniyati ham cheklangan, u so'zlashdan boshqa sathlar doirasida o'z qudratini namoyon eta olmaydi, degan noto'g'ri xulosaga sabab bo'lishi mumkin. So'nggi yillarda tilshunoslar tomonidan so'z yasash usullari, formatlari, so'z yasashining murakkab birliklari o'rganilmoqda, valentlik faol o'rganilmoqda va shu kabi boshqa muammolarga qiziqishi sezilarli darajada oshdi. Haligacha o'zining to'liq yoritilishini kutayotgan ana shunday muammolardan biri tildagi erkin va turg'un so'z birikmalarining hosil bo'lish jarayonidir. Derivatsiya natijasida asl birlikning tuzilishi va semantikasini o'zgartirish orqali ikkilamchi nominativ birliklar, ya'ni hosilalar deb atalmish birliklar paydo bo'ladi.

Tilshunoslikda tor ma'noda sintaktik va morfologik turni, *keng manoda* metafora, metonimiya kabi til hodisalarini, zamon, mayl, tuslanish kabi lisoniy shakllarni o'z ichga olgan *lotinchadan olingan so'z "o'rin almashtirish"* ma'nosida *transpozitsiya termini* anglatadi.

Transpozitsiyaning voqelanishi til birliklarning semantik yoki funksional qiyosiga asoslanadi. Til birliklarning funksional-semantik qiyosi esa asos forma, transpozitor va transpozit o'rtasidagi munosabat orqali amalga oshiriladi.

Derivatsiya terminining tilshunoslikdagi dastlabki tatbiqi ham uning tor ma'nosida, ya'ni so'z yasash hodisasi bilan ma'nodosh holda amalga oshiriladi. N.Q.Turniyozovning yozishicha, "Fransuzcha-ruscha lug'at"da derivatsiya (deivation) so'zining quyidagi ma'nolari qayd etilgan: a) ajralish, tarmoqlanish; b) chetlashtirish; v) so'z yasashi; g) aylanib o'tiladigan yo'l; d) farqlash. Derivatsiya so'zining keltirilgan ma'nolaridan faqat "so'z yasashi" tushunchasigina grammatik e'tiborga molik bo'lganligi sababli, tilshunoslik fanining hozirgi bosqichiga qadar "derivatsiya" atamasini faqatgina leksik planda, ya'ni so'z yasashi mazmunida ishlatilib kelingan [7]. Buning o'ziga xos dalillarini XX asrning ikkinchi yarmidan keyin chop etilgan "Lingvistik terminlar izohli lug'ati"da ushbu terminning "affiksalar yordamida yangi so'z yasashi", "affiksalar va affiksalar yordamsiz so'z yasash" tarzida izohlanganligi misolida ham ko'rish mumkin [10].

So'z (til birligi) inson tomonidan nutq orqali bilimlarini va o'z fikriga bo'lgan subyektiv munosabatini ifodalash uchun qo'llaniladi. Nutq esa, ma'lumki, har doim ikkita subyekt, ya'ni so'zlovchi yoki yozuvchi hamda tinglovchi yoki o'quvchiga (kitobxoniga) ega bo'ladi. Tinglovchisiz nutq mavjud bo'lmaydi. Hatto ikkinchi odamning ishtirokisiz so'zlangan nutq ham insonning o'z-o'zi bilan muloqoti tarzida baholanadi.

Derivatsiya jarayonining andozali xarakterda bo'lishi xuddi shu xususiyatlardan biridir. Chunki uning har bir ko'rinishi ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, bunda aniq semantik vazifa bajariladi va maqsadga erishishda cheklangan miqdordagi formal vositalardan foydalaniladi. Shunga ko'ra, derivatsiya jarayonini ikki yo'nalishda, ya'ni semantik va formal yondashuvlarni tatbiq etish yo'li bilan o'rganish mumkinligi o'z tasdiqini topadi. Natijada, derivatsion jarayonlarni modellashtirish imkoni tug'iladi.

Tilshunoslar turli xil birliklarning (so'z, SB, gap) u yoki bu model asosida yaratilishi, tuzilishi haqida gapiradilar. Har qanday model mavjud bo'lgan birliklarning asosiy belgilarini umumlashtirish yo'li bilan tuziladi. Y.S.Kubryakova hamda Y.G.Pankrats aytganlaridek, "derivatsiya" jarayoni boshlang'ich birlik va ushbu jarayon natijasida yuzaga kelgan hosila birlik o'rtasidagi munosabat va aloqalarni aniqlash uchun xizmat qilishi bilan bir qatorda, yaxlitning qismlari holatidagi ushbu jarayonning ichki munosabatlarini ham namoyon qiladi. Zotan, tilda kuzatiladigan barcha derivatsion jarayonlar bir-biriga o'xshash bo'lib, ular nafaqat andozali kechadi, balki o'ziga xos bog'liqlik, munosabatlarni aks ettiruvchi strukturaga ham egadir. "Jarayon strukturasi, – deb xulosaga keladi mualliflar, – uning modelining ajralmas qismidir va bunda substansiya, struktura hamda funksiyaning moslashuvi aks etadi"[3].

Ma'lumki, so'z birikmalari tizimida chiziqli derivatsiyaga mansub birliklarning katta qismi asosan tarkibiy qismlarining bir tekis birikuviga asosida tuziladi va bu ularning struktur modellarida o'z aksini topadi. Masalan: *iron mask* kabi birikuv N_1+N_2 modeliga ega bo'lsa, *the corner of the room; the letter from a friend; a table at the window; the grass on the ground; a girl with the boy; gift for the teacher* predlogli birikmalarining derivatsion modeli N_1+pr+N_2 . Xuddi shuningdek, *father's birthday; pupils' study* birikmalari $N's+N$ modeliga ega yoki *small house; wide street* kabi birikmalarining struktur modeli $Adj+N$; ayni paytda $Ving+N$, $Ven+N$ va $Ven+pr+N$ modelidagi *laughing child; stolen purse; driven by a man* birikmalari ham chiziqli derivatsiya jarayonining mahsulidir. Masalan:

.. *summer of that ear we lived in a house in a village ... and the plain to the mountains. In the bed of the river there were pebbles and boulders, dry and white in the sun, and the water ... in the channels. Troops went by the house ... the leaves of the trees. The trunks of the trees ... the troops marching along the road and the dust rising and leaves, stirred by the breeze, ... the soldiers marching and afterward the road bare and white except for the leaves. The plain was rich with crops; orchards of fruit trees fighting in the mountains and... the flashes from the artillery. In the dark it was like summer lightning, but the nights were cool and there was not the feeling of a storm coming* (E. Heminguey) [1].

Bu misol tariqasida keltirilgan modellarning farqi faqat derivatsiya formal operatorlarining turli xil ekanligidadir. Yuqoridagi birikmalarda shunday operatorlar rolini predloglar va 's formanti o'ynamoqda. Eng faol operatorlar qatoriga, predloglardan tashqari, nol operatori kiradi, chunki hozirgi ingliz tilida birliklarning sintagmatik qatordagi moslashuvi ko'proq analitik ko'rinish oladi. Derivatsion operatori predlog bo'lgan SBlari tizimidagi derivatsion jarayon cheksiz davom etishi va ushbu qolipga kiritilgan SBlarining barchasi, turli nutqiy matnlarda faollashayotib, murakkab tarkibga ega bo'lishi mumkin.

Xuddi ingliz tilida berilgan misoldagi kabi tarkibiy qismlarining bir tekis birikuviga asosida tuzilgan chiziqli derivatsiyaga mansub SBlarining o'zbek tilidagi matnda faollashuvini ko'ramiz:

O'tkir Hoshimovning "Nur borki, soya bor" asarida so'z birikmalarining barcha yasalish sxemasi bo'yicha misollar uchratamiz: kasalxona hovlisi; kasalxona hovlisi bo'm-bo'sh; qor allaqachon erib ketgan; bahor kirmagan; sovuq urib ketmasligi uchun; gullarning usti; "ko'mma" qilib qo'yilgan; sarg'ish qipiq; yig'ishtirib olinmagan; gulzorga to'kilgan; gulzorga to'kilgan bulturgi xazon; gulzorga to'kilgan bulturgi xazon ilma-teshik bo'lgan; och jigari rang tus olgan; qish bo'yi qoru yomg'ir suviga to'ygan er; qorayib qolgan er; mudroq bir kayfiyatda og'ir-og'ir xo'rsinayotgan er; hali chopilmagan ariqcha; hali chopilmagan ariqcha chetida; chopilmagan ariqcha chetida unda-bunda ko'rinib qolgan; unda-bunda ko'rinib qolgan maysa; maysa nayzachalari; nurli kunlar; darak berib tantana qiladi; deraza yonida; deraza yonida o'sgan bir tup o'rik niholining novdalari; o'rik niholining novdalari; shamolda silkinadi; yaqinlashib kelayotgan; yaqinlashib kelayotgan bahor.

SBlari quyidagi derivatsion modellar asosida yasaladi:

1. Derivatsion operator rolini predlog o'tagan kengayish jarayonining mahsuli bo'lmish SBlarning $N_1+pr+N_2+pr+N_3+ \dots +N_n$ (Ot_1 + kelishik qo'shimchasi + Ot_2 + kelishik qo'shimchasi + $Ot_3 + \dots + Ot$) modeli. Ushbu modelga e'tibor qaratsak, predloglar vositasida yana boshqa otlarning birikuvi hisobiga SBlari tuzilishining murakkablashuvi yuzaga kelishini ko'ramiz. Bu turdagi murakkab SBlarida bo'laklarning o'zaro tobeligi ikki shaklga ega: a) bosh bo'lak birdan ortiq tobe bo'laklar bilan birikadi; b) murakkab birikmalarda tobe bo'lak mustaqil ravishda boshqa bo'laklar bilan birikib, bosh bo'lak vazifasini o'taydi. Shartli ravishda parallel derivatsiya jarayoni natijasi, deb qaralayotgan ushbu tuzilma yagona bir negiz bo'lak atrofida bir necha komponentlarning birikishidan iboratdir. Qiyoslang: – *Their house in front of the garden near the station*. – *Ularning bekat yaqinidagi bog' oldida joylashgan uylari*. Ushbu birikmaning murakkablashgan derivatsion jarayon hosilasi ekanligini izohlash uchun uning tarkibidan tasmasimon joylashgan oddiy SBlarini ajratib olamiz: – *the house in front of the garden*; – *the house near the station*; – *Ularning bekat yaqinidagi uylari*; – *Ularning bog' oldidagi uylari*. Misollardagi bo'laklarining leksik ma'nolari mos SB tarkibidagi elementlar birikmaning negiz bo'lagi *house – uy* bilan bir xil munosabatda va ularning tobeligi parallel xarakterga ega.

2. Nol operatoriga ega yoki 's formanti bilan ifodalangan kengayish derivatsiyasi negizida shakllangan murakkab birikmalar. O'zbek tilida 's formanti vazifasini kelishik qo'shimchalari bajaradi. Birikmani murakkablashtiruvchi bo'laklar bunday hollarda negiz elementga nisbatan bir xilda old va so'ng o'rinlarni egallashi mumkin. Bunday jarayon natijasida quyidagi qoliplarga ega murakkab birikmalar hosil bo'ladi:

a) $MN_1+pr+N_2 \leftrightarrow Ot_1+kq+SOT_2$ (*the smallest child of the family – oilaning eng kichik farzandi* yoki *oiladagi eng kichik farzand*);

b) $N_1+pr+MN_2 \leftrightarrow SOT_2+ kq+ Ot_1$ (*the child of the big family – katta oiladagi farzand*);

s) $N_1+'s +N_2+pr+MN_3 \leftrightarrow Ot_1+ kq +Ot_2+ SOT_3+ kq$ (*the driver's car in the dark garage – haydovchining mashinasi qorong'i garajda*).

So'z birikmalari yasaladigan derivatsion modellar

No.	Ingliz tilidagi modellar	O'zbek tilidagi modellar	Moslgi
1.	MN_1+pr+N_2	$Ot_1+kq+SOT_2$	-
2.	$N_1+pr+MN_2$	$SOT_2+ kq+ Ot_1$	-
3.	$N_1+'s +N_2+pr+MN_3$	$Ot_1+ kq +Ot_2+ SOT_3+ kq$	-

Ushbu modellarda M bilan belgilanayotgan elementlar sifat, otning bosh va genitiv kelishigi shakllari ($N – Ot$; $N's – Otning$), olmosh, son, sifatdosh kabilar bilan ifodalanadi. Boshqacha aytganda, ushbu turdagi murakkab birikmalarda bosh va tobe bo'laklar o'rmini AN (Sifat Ot), NN (Ot Ot), RN (Olmosh Ot), NumN (Son Ot), VingN (Sifatdosh Ot), VenN (Sifatdosh Ot) tarkibli oddiy binomlar egallaydi. Jadvalda modellarning mosligi ko'rinmasa-da, bu faqat ushbu modellarning shakliga tegishli, mazmun jihatdan farqlar deyarli mavjud emas.

Derivatsiya jarayonida sifat, ravish son va gerundiy turkumlariga oid elementlar ham ishtirok etadi. Bu kabi elementlarning murakkab birikmalar tarkibidan o'rin olishi turli xil kechadi. Masalan, ravishning sintaktik o'rni doimiy bo'lmasdan, old va so'ng bo'laklar o'rmini bir xilda egallashi kuzatiladi: – *Smoking in room last time – oxirgi marta xonadagi chekish*; – *A concert of young group three days ago – Yoshlar guruhining uch kun oldingi konserti*.

Son yoki as bog'lovchili otning bosh bo'lak bilan birikuvi hisobidan kengayish derivatsiyasi yuzaga kelganda, aniqlovchi doimo otdan keyingi o'rinni egallaydi, va bu holat ularning ot bo'lagi bilan leksik chatishuvini bildiradi. Buning isbotini ushbu elementlar tushirib qoldirilganda SBning mazmun strukturasiida biror-bir ahamiyatli o'zgarish sezilmasligida ko'rish mumkin: – *Variant five of the test → the variant ... of the test*.

Xulosa va takliflar. Derivatsion operatori predlog bo'lgan va predlogsiz yuzaga keladigan aralash modeli murakkab tarkibli SBlarining derivatsion tuzilishi $MN_1+pr+MN_2+pr+MN_3$: sxemasida ko'ramiz. SB tarkibining bu tarzda kengaytirish uning bosh va tobe komponentlarining o'zaro bog'liqligi natijasidir, ular gap tarkibida murakkab birikma sifatida bir necha mustaqil oddiy so'z birikmalarga taqsimlanishi bilan isbotlanadi:

– *A breakfast of coffee, eggs and sausage → A breakfast of coffee, (A breakfast of) eggs, (A breakfast of) sausage*.

Murakkab SBlari derivatsiyasidagi etakchi bo'lakni aniqlashning struktur-formal uslublaridan biri SBni verballashtirish, ya'ni predikativ tuzilmaga aylantirishdir: – *A computer game playing limitation → a limitation on computer game playing*. Ko'p tarkibli murakkab SBlarining matnda qo'llanilishiga ko'ra tahlili asosida aniqlangan farazlar *derivatsiya modellari* deb ataladi. Derivatologiyada til birliklari dinamik jihatdan o'rganiladi, ya'ni tadqiq qilish uning ilk yaratilgan vaqtdan boshlanadi. Bu derivatsion tahlil metodologiyasining xususiyatlarini oldindan belgilab beradi. Darhaqiqat, ma'lum bir matn bilan shug'ullanish jarayonida, derivatologiya ushbu matn tarkibida uning yaratilish "izlar"ni topishga harakat qiladi, ushbu izlar matn yaratish jarayonini qayta tiklash imkoniyatini beruvchi til belgilari bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Hemingway E. A Farewell to Arms. <http://www.free.Books.com>. 2020. – 344 p (ushbu asardan olimgan misollar qavs ichida beti ko'rsatilgan holda beriladi).
2. O'Grady W., Dobrovolsky M., Katamba F. Contemporary Linguistics. - Harlow - Essex: Longman, 1997. – P.155.
3. Кубрякова Е.С. Панкрац Ю.Г. О типологии процессов деривации // Теоретические аспекты деривации. – Пермь, 1982. – С. 7-20.
4. Қошғарий Маҳмуд. Девону луғатит турк. 2-том. –Тошкент, 1963. – Б. 45.
5. Мурзин Л.Н. Основы дериватологии. – Пермь: ПГУ, 1984. – С. 16.
6. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент, 2002. – Б. 94.

7. Турниёзов Н.Қ. Ўзбек тили деривацион синтаксисига кириш. – Самарқанд, 1990. – 55 б.
8. Турниёзов Н. Тил бирликларининг нутқий деривацияси // Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumanı materiallari. - Samarqand: SamDCHTI, 2018. – Б. 6.
9. Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 1972. – Б37.
10. Ҳожиев А.Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент, 1989. – Б. 11.